

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKHLARI SOHASIDAGI AMALGA OSHIRILADIGAN VAZIFALAR

Azamova Sitora Ayonovna

ShDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Arolova Zarina Lochi qizi

SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada inson huquqlari va erkinliklari sohasida O'zbekistonda amalga oshiriladigan ishlar va qonunda kiritilgan o'zgartirishlar haqida fikr bildirilgan. Hamda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rni haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, Ombudsman, Inson huquqlari komissiyalari, Gender tenglik, Parlament, elektron hukumat, BMT, Konstitutsiya, xalqaro huquq.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" ga atalgan. X bobi esa inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari to'g'risida belgilangan. Bunda ko'rishimiz mumkunki har bir davlatda shaxsning huquq va erkinliklari birinchi o'rinda turadi. Biz tarixdan nazar soladigan bo'lsak, odamlarning umumiyligi tengligi xususida qadimgi dunyoda yuzaga kelgan g'oya o'rta asrlarda yuq bo'lib ketmadi. U turli yo'llardan, har xil shakl va yo'nalishlarda masalan, diniy mavzuda ijod qiluvchilarning, o'rta asr kufronaligi maddoxlarining ijodiyotida, o'rta asr huquqshunoslarining asarlari va shu kabilarda rivojlanishda davom etdi. Inson huquqlari g'oyasining shakllanishiga ilk nasroniylik tafakkuri qushgan yana bir muhim ulushi tangri tomonidan yaratilgan xilqat tariqasida har bir insonning noyob va betakror ekanligi to'g'risida ta'lilot, ya'ni ruhning mangu ekanligi g'oyasidan kelib chiquvchi ta'lomitdir. Bu bilan nasroniylik insonni taqdir uyinchoqlaridan tangri Taolonning benazir ijodiyoti mahsuli, erkin irodali mavjudotga aylantirganligi tushunilgan. Bu g'oyalarnasroniylik iloxiyotchisi, nasroniy falsafa, va tarix asoschisi Avgustin Avreliy asarlarida keng ko'lamda rivojlantirilgan. Ingliz mutafakkiri J.Lok har kim fuqarolik manfaatlarini: hayoti, sog'ligi, erkinligi ta'minlanishini, saqlanishi va amalga oshirilishi imkoniyatiga ega bo'lishi uchun qancha vakolat zarur bo'lsa, davlat odamlardan xuddi shuncha vakolat oladi deb hisoblagan. J.Lokning fikricha, xalqning suvereniteti uning o'zi tomonidan barpo etilgan davlatning suverenitetidan yuqoriqdirdir. Bu fikrlar bugungi kunda inson huquq va erkinliklari to'g'risida qonunlar, xalqaro shartnomalar yaratilishiga turtki bo'ldi. Masalan BMT butun dunyoda inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga harakat qilib kelmoqda. BMTning inson muayyan huquqlari himoya etilishini ta'minlashga qaratilgan xalqaro shartnomalari jumlasiga quyidagilar kiradi: 1979 yilda qabul qilingan Xotin – qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya; 1989 yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya; 1984 yilda qabul qilingan Qiynoqlarga solishga hamda muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni taxqirlovchi turlariga qarshi konvensiyalar qabul qilingan. Millatlar Hamdo'stligi Kotibiyati va Xalqaro ombudsman instituti inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni barpo etish va rivojlanishni, ayniqsa, qat'iyat bilan yoqlab chiqqanlar. Ko'pgina mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilishga daxldor qonunlar hamda qoidalarning samarali tarzda qo'llanilishini ta'minlash uchun komissiyalar ya'ni, qumitalar, markazlar tashkil

etilgan. Inson huquqlari komissiyalari asosan fuqarolarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya etish, hamda insonning fuqarolik va siyosiy huquqlarini muhofaza qilish bilan shug'ullanadi. Shuningdek har qanday fuqaro, agar u o'zining huquqlari buzilgan deb hisoblayotgan bo'lsa, Ombudsmanga shikoyat yuborishi mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil, 10 dekabrda BMT tashkiloti Bosh assambleyasining 217 A ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shaxsiy huquqlar orasida avvalo har bir kishining hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqi alohida ta'kidlangan. Deklaratsiyada insonning quyidagi siyosiy huquqlari hamda erkinliklari ham ta'kidlangan: fikrlash, vijdon, din erkinligi, e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqi; tinch yig'lishlar o'tkazish hamda uyushmalarga a'zo bo'lish huquqi; o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqi; yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiyleng teng saylash huquqi; erkin ravishda ko'chib yurishda hamda o'ziga tura joy tanlash huquqi; boshpana huquqi; milliy yoki diniy alomat bo'yicha hech bir cheklovsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi; (13-21-moddalar). Ushbu deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasining imzolagan birinchi xalqaro hujjatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2- bo'limi mazkur deklaratsiya talablariga to'la mos bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqe'idan qat'iy nazar, qonun oldida tengligi ta'kidlangan. Respublikada inson huquqlariga oid 100dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan. Jumladan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2023 yil 23 martda qabul qilingan Senat tomonidan 2023 yil 6- aprelda ma'qullangan, Mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olinishga, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalarni hamda ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Gender tenglikni ta'minlash maqsadida bir qator qonun hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2019 yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidan. Xotin-qizlar uchun 197 ta zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish, o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha 200 dan ortiq innovatsion mакtablar tashkil etildi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, nizolarni sudgacha hal qilishda va taraflarni yarashtirishda advokatlarning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Har bir shaxs o'z huquq va erkinliklari poymol qilinmasligi uchun shu huquq sohasi bo'yicha ta'limdan habardor bo'lishi lozim. Inson huquqlari sohasidagi ta'lim quyidagilarni ta'min etib berishi kerak: birinchidan, jamiatning barcha a'zolari qamrab olinadigan axborot yo'nalishidagi va ma'rifiy tadbirlar yordamida insonning barcha huquqlari hurmat etilishi hamda ximoya qilinishiga kumaklashish; ikkinchidan, inson huquqlarining, shu jumladan, shaxsiy siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning, shuningdek, rivojlanish huquqining o'zaro bog'liq, bo'linmas va universal bo'lishiga kumaklashish; uchinchidan, inson huquqlari tariqasida xotin-qizlarning huquqlarini milliy rivojlanishning jamiki jihatlarida aks ettirish; to'rtinchidan, o'qishda fuqarolarga ularning inson huquqlarini amalga oshirishda ongli ravishda ishtiroy etishini va barkamol shaxs sifatida komillikka erishishni rag'batlantiradigan sharoitlar yaratilishiga ko'maklashish dan iborat. BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida ishtiroy etgan

dunyoning ko'plab mamlakatlari mutaxassislari bola huquqlari to'g'risidagi yangi hujjatning matnnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989 yil 20 noyabrda BMT ning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 78-moddasidan quyidagicha norma o'rinni oлган: "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'I nqzar, qonun oldida tengdirilar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi". Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta'minlashga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlari "Bolaning eng yaxshi manfaatlari" prinsipini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda. Mamlakatimizda zuravonlikka uchragan ayollarimiz himoya qilish qonuni qabul qilindi. Shunga binoan zo'ravonlikka uchragan ayollarimiz uchun mo'ljallanga "1146" ishonch telefon raqamlari ishga tushurildi. Bu telefon raqamiga murojaat qilgan ayollarimiz soni 7 mingga yaqinlashdi. Bu esa yurtimizda ayollarga nisbatan tazyiqlar qanchalik yuqori darajada ekanligini ko'ramiz. Bosh vazir o'rribbosari, Xotin -qizlar qo'mitasi raisi Tanzila Norboyeva 19 noyabr kuni poytaxtda bo'lib o'tgan BMTning "xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'grisida"gi Konvensiyasi asosida Qo'mita tavsiyalarini bajarishga bag'ishlangan davra suhabatida shu haqda aytib o'tdi. Bularning barchasi yurtimizning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Agar bir davlat o'z xalqining chinakam huquq va erkinliklarini himoya qilsa, bu davlat yuksaklik darajasiga erisha boradi. Inson huquq va erkinliklari sohasida innovatsiyalar ko'plab yangi yondashuvlar, texnologiyalar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Quyida ba'zi muhim innovatsiyalarni ko'rib chiqamiz:

- Texnologiya va raqamli huquqlar:** Internet va raqamli texnologiyalar yordamida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi platformalar paydo bo'lmoqda. Masalan, onlayn pettsiyalar, huquqiy maslahatlar beruvchi chatbotlar va inson huquqlari monitoringi uchun mobil ilovalar.
- Ma'lumotlar tahlili:** Inson huquqlarini buzish holatlarini aniqlash va oldini olish uchun katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellektidan foydalanish. Bu, masalan, kamsituvchi faoliyatlar haqida tezkor hisobotlar yaratishga yordam beradi.
- Ommaviy axborot vositalari:** Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalar inson huquqlari buzilishlariga e'tibor qaratish va xalqaro miqyosda tadbirlarga jalb etish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda.
- Tadqiqot va ta'lim:** Inson huquqlari bo'yicha innovatsion ta'lim dasturlari va o'quv materiallari ishlab chiqilishi, bu orqali avlodlarga huquqlari va erkinliklari haqida ma'lumot berish.
- Himoya mexanizmlari:** Xalqaro va mahalliy tashkilotlar inson huquqlarini himoya qilish uchun yangi mexanizmlar va tashabbuslarni rivojlantirmoqda, masalan, tezkor huquqiy yordam va krizis holatlari uchun reaksiya tizimlari.
- Yaqinlashish va hamkorlik:** Turli davlatlar va tashkilotlar o'rtasida inson huquqlarini himoya qilishda hamkorlik qilishga qaratilgan yangi tashabbuslar.

Xulosa o'rnida shuni aytamanki har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini bilsa va o'zgalarning ham huquqlarini hurmat qilsa, shundagina jamiyat orasida ma'naviy – madaniy o'sish paydo bo'ladi.

Foydalanimilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.O'zbekiston. Toshkent-2023.
2. A.X.Saidov "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq". Toshkent-2006.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>.
4. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O 'ZBEKISTON TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
5. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
6. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
7. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
8. 11. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
9. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
10. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O 'ZBEKISTON TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
11. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
12. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
14. Ayonovna A. S. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO 'LLARI VA BOSQICHLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6. – C. 136-136.